

XII. DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning 1-oktabr holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 530,3 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 22,9 ming kishiga yoki 1,5 foizga ko'paydi. Shundan, 718,2 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 812,1 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.



Jizzax viloyatining hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2024- yilning 1- oktabr holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Jizzax viloyati	1 530,3	718,2	812,1	102,0	102,1	192,3	100,0	100,0	100,0
<i>shahar:</i>									
Jizzax	199,0	199,0	0,0	102,1	102,1	0,0	13,0	27,7	0
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	49,3	17,0	32,3	101,6	101,8	154,9	3,2	2,4	4,0
Baxmal	173,4	47,8	125,6	102,2	102,8	140,8	11,3	6,7	15,5
G'allaorol	189,7	66,0	123,7	102,1	101,8	156,8	12,4	9,2	15,2
Sharof Rashidov	247,3	98,5	148,8	102,4	102,6	169,9	16,2	13,7	18,3
Do'stlik	70,7	29,8	40,9	101,5	101,4	175,8	4,6	4,1	5,0
Zomin	182,9	86,7	96,2	102,5	102,4	195,0	11,9	12,1	11,9
Zarbdor	96,0	53,1	42,9	102,0	101,9	228,3	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	54,3	24,7	29,6	101,7	101,5	186,9	3,5	3,4	3,6
Mirzacho'l	56,1	31,4	24,7	101,8	101,8	231,3	3,7	4,4	3
Paxtakor	82,0	39,5	42,5	101,8	101,5	196,8	5,4	5,5	5,2
Forish	99,5	18,4	81,1	101,4	101,2	124,5	6,5	2,5	10,0
Yangiobod	30,1	6,3	23,8	101,2	100,0	128,4	2,0	0,9	2,9



Jizzax viloyatining doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2024- yilning 1-oktabr holatiga)


Doimiy aholi soni

1 530,3
ming kishi


Tabiiy o'sish

+24,6
ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi



2024- yilning 1-oktabr holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 530,3 ming kishini tashkil etib, shundan erkaklar 772,4 ming kishini (jami aholi sonining 50,5 %) va ayollar 757,9 ming kishi (49,5 %) ni tashkil qildi.





Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da
(2024- yil 1-oktabr xolatiga)


Jizzax viloyati



Doimiy aholi sonining ming kishi



Doimiy aholisi soni




Yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Tug'ilganlar	31 063	29 422	27,9	25,9
Vafot etganlar	5 302	4 781	4,8	4,2
<i>shu jumladan:</i>				
Nikohlar	7 881	7 554	7,1	6,6
Ajralishlar	1289	1280	1,2	1,1

Tug'ilish. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 29 422 kishini tashkil etdi va 2023- yilning shu davriga (31 063 kishi) nisbatan 1 641 kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish ko'effitsiyenti 25,9 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish ko'effitsiyentining sezilarli kamayishi Jizzax shaxrida (27,0 promilledan 22,3 promillegacha), Zafarobod (26,8 promilledan 23,0 promillegacha), Paxtakor (27,3 promilledan 24,1 promillegacha) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va ko'effitsiyenti
2024- yilning yanvar-sentabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)




O'lim. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o'lganlar soni 4 781 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (5 302 kishi) nisbatan 521 kishiga kamaydi, mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil qildi (2023- yil yanvar-sentabr 4,8 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyentining sezilarli kamayishi Arnasoy (5,5 dan 3,2 promillegacha) Zafarobod (6,1 promilledan 3,9 promillegacha) va Sharof Rashidov (5,1 dan 3,9 promillegacha) tumanlarida kuzatildi.

O'lim darajasining o'sish ko'rsatkichi Mirzacho'l (0,4 promillega) tumanida kuzatildi.

Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti


2024- yilning yanvar-sentabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)



O'lganlar umumiy sonidan 52,1 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,2 foizi – o'sma kasalliklaridan, 8,7 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 4,7 foizi – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 9,3 foizi – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 14,7 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.




Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



Nikohlar va ajralishlar. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 7 554 ta nikohlar va 1 280 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,6 ni (2023- yilning yanvar-sentabrda 7,1 bo'lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 ni (2023- yilning yanvar-sentabrda 1,2 bo'lgan) tashkil etgan.

2024 -yilning yanvar-sentabr oylarida hududlarda tuzilgan nikoh koeffitsiyentlari



Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2023- yilning mos davriga nisbatan hududlarda kamayish kuzatilgan. Bunda eng yuqori kamayish sur'ati Jizzax shahri (1,7 %) va Zafarobod (0,9 %) tumanida kuzatildi.




Hududlarda yanvar-sentabr oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(kishida)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>
Jizzax viloyati	7 881	7 554	1 289	1 280
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 289	1 070	225	254
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	209	197	32	35
Baxmal	987	944	114	109
G'allaorol	1 055	1 006	153	180
Sharof Rashidov	1 209	1 231	206	186
Do'stlik	293	276	59	40
Zomin	912	916	138	152
Zarbdor	401	425	81	74
Zafarobod	241	210	46	41
Mirzacho'l	216	222	54	58
Paxtakor	401	415	82	76
Forish	517	498	70	56
Yangiobod	151	144	29	19

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyentlari
(2024-yil yanvar-sentabr oylarida)**



Ajrimlar sonida 2023- yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatildi.

Nisbatan yuqori kamayishlar soni Sharof Rashidov (20 taga) va Do'stlik (19 taga) tumanlarida kuzatildi.



2024 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy oʻsish soni va koeffitsiyenti

(kishi)

	Kishi soni		1 000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Jizzax viloyati	25 761	24 641	23,1	21,7
<i>shahar:</i>				
Jizzax	3 276	2 596	22,7	17,6
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	644	730	17,8	19,9
Baxmal	3 393	3 237	27	25,2
Gʻallaorol	3 292	3 283	23,9	23,3
Sharof Rashidov	4 562	4 595	25,5	25
Doʻstlik	1 035	977	20	18,6
Zomin	3 291	3 277	24,9	24,2
Zarbdor	1 647	1 615	23,6	22,7
Zafarobod	821	775	20,7	19,1
Mirzachoʻl	679	660	16,6	15,8
Paxtakor	1 357	1 201	22,7	19,7
Forish	1 408	1 340	19,3	18,1
Yangiobod	356	355	16,1	15,8

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5 628 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 7 377 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 1 749 kishini tashkil etgan, 2023- yilning mos davrida minus 1 643 kishi bo'lgan.



Yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Jizzax viloyati	4 765	5 628	6 408	7 377	-1 643	-1 749
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1 139	1 712	1 118	1 140	21	572
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	109	176	296	306	-187	-130
Baxmal	237	378	641	806	-404	-428
G'allaorol	263	254	596	708	-333	-454
Sharof Rashidov	931	712	804	1069	127	-357
Do'stlik	222	260	421	478	-199	-218
Zomin	405	565	479	541	-74	24
Zarbdor	262	207	368	433	-106	-226
Zafarobod	191	139	303	280	-112	-141
Mirzacho'l	348	471	375	404	-27	67
Paxtakor	381	385	420	488	-39	-103
Forish	198	230	439	520	-241	-290
Yangiobod	79	139	148	204	-69	-65

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Sharof Rashidov (minus 484 kishi), G'allaorol (minus 121 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosini Jizzax shahrida (551 kishi) kuzatildi.